

SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi "Biznes va tadbirkorlik oliy maktab" magistratura talabasi
Mamarasulov Nozimjon Mamajonovich*

Annotatsiya: Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi. Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini diversifikatsiyalash asosida tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim omillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, bank-moliya, investitsiya, innovatsiya, moliyaviy qo'llab -quvvatlash.

Hozirgi globallashuv sharoitida ko'plab mamlakatlar iqtisodiyotida yirik korxonalaridan ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi ortib borayotganini ko'rish mumkin. Chunki, o'tgan davr mobaynida davlat ulushi yuqori bo'lgan doimiy ravishda birlashib boradigan korxonalar va firmalar o'rtalarida kapitalga egalik o'sib boradigan nazariy paradigma o'zining amaliy tasdig'ini topa olmadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning kichik korxonalarida ishchilar va ishlab chiqarish ulushining o'sishi aniqlandi. Ishlab chiqarishni tashkil etishdagi tarkibiy o'zgarishlar kichik biznesning rolini qayta baholaganligini tasdiqladi. Yangi kichik korxonalarining paydo bo'lishi ish o'rinlari, ish haqi daromadlari va natijada farovonlik o'sishining asosiy manbai sifatida ko'rila boshladi. Kichik va o'rta korxonalarining aksariyati iqtisodiyotda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta rol o'ynaydi.

Tajribadan ko'rinadiki, 2020 yilda milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 53,9 %ini tashkil etdi. Bu esa nafaqat O'zbekiston Respublikasida balki ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi asosiy qismini tashkil etadi va ish o'rinlari tashkil etish hamda global iqtisodiy rivojlanishda muhim hissa qo'shadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda kichik va o'rta biznes yalpi ichki mahsulotning 33 foizidan 67 foizigacha ishlab chiqaradi.

Kichik biznes sub'ektlari dunyo bo'ylab biznesning 90%i va bandlikning 50% dan ortig'ini tashkil etadi va rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda

milliy daromadning 40 foizigacha o'z hissasini qo'shmoqda. Bu raqamlar norasmiy kichik va o'rta korxonalar kiritilganda yanada ancha yuqori bo'lishi kuzatiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030 yilga qadar o'sib borayotgan global ishchi kuchini singdirish uchun 600 million ish o'rni kerak bo'ladi¹.

Bu dunyodagi ko'plab davlatlar uchun kichik va o'rta biznesni rivojlanishini ustuvor vazifaga aylantiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda rasmiy ish joylarining katta qismi kichik va o'rta korxonalar tomonidan yaratiladi va ular o'rtacha 10 ta ish joyidan 7 tasini tashkil qiladi. Biroq, o'rganishlar shundan dalolat beradiki, rivojlangan davlatlarda ham kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi to'sqinlik qiluvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Kichik biznesning rivojlanishi, mutaxassislarning fikriga ko'ra, sobiq ittifoq mamlakatlarda, davlat korxonalarining parchalanishi bilan bir qatorda, kichik firmalar vujudga kela boshlagan va tez rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zgarishi natijalari kichik va o'rta biznes sub'ektlariga bog'liqligi aniqlangan. Chunki, kichik biznes ko'p sohalardagi yirik firmalarga nisbatan yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga, shuningdek innovatsiyalar va mintaqaviy o'sish uchun katalizator rolini o'ynash qobiliyatiga ega.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston Respublikasining davlat mulkini xususiylashtirish fonida ushbu jarayon hozirgi kunda ham faol ravishda davom etmoqda va bu iqtisodiyotning davlat hamda nodavlat tuzilmalari tomonidan alohida qo'llab-quvvatlanadigan bir sektor sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotning ushbu sohasini tartibga solish uchun respublika va uning hududlarida tartibga soluvchi huquqiy baza yaratilgan bo'lib, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha islohatlar amalga oshirib borilmoqda.

Jumladan, aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"² va "2022 — 2026 yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarini keltirish mumkin. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning rivojlanish darajasiga e'tiborni qaratgan holda

¹ Improving SMEs' access to finance and finding innovative solutions to unlock sources of capital. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>

mamlakat va hududiy darajadagi strategik hujjatlar kichik biznesni rivojlantirish darajasidagi vazifalarni amalga oshirish, uni faollashtirish uchun rag'batlantirilishi aniqlandi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes mintaqa iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ixtisoslashuv yo'nalishi va iqtisodiy rivojlanish darajasini, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligining muhim omili bo'lib, iqtisodiy jihatdan hududiy notekisligini pasaytirishga imkon beradi. Ma'lumki, kichik biznes rivojlanayotgan joyda o'rta sinfning hissasi, aholining tashabbusi va odamlarning o'z mehnatlari natijalari uchun javobgarligi ortib bormoqda. Kichik biznes joylarda bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, aholi bandligini ta'minlaydi, daromadlar va byudjet tizimini o'sishini ta'minlaydi. Kichik biznes innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lib, texnik rivojlangan sohalarda va barcha iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdi (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan %da)

Ko'rsatkichlar	2000	2005	2010	2015	2020	2022	2023	2023 yilda 2000 yilga nisbatan o'zgarishi (-,+)
YaIM	31,0	38,2	60,8	64,6	55,7	54,9	51,8	20,8
Sanoat	12,9	10,0	26,6	40,6	27,9	27,0	25,9	13,0
Qurilish	38,4	50,9	52,5	66,7	72,5	72,4	71,6	33,2
Bandlik	49,7	64,8	74,3	77,9	74,5	74,4	74,4	24,7
Eksport	10,2	6,0	13,7	27,0	20,5	22,3	29,5	19,3
Import	22,8	33,7	35,8	44,5	51,7	48,7	49,4	26,6

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2023 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 51,8 % ni tashkil qildi va bu o'tgan 2022 yilda 54,9 %ga teng bo'lib, YaIM tarkibida kichik tadbirkorlikning ulushining pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi. Jadval qiymatlariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, kichik biznes sub'ektlarining tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 2023 yilda 2000 yilga nisbatan 13,0 %ga oshib 25,9 %ga teng bo'lgan. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushning eng yuqori ko'rsatkichlari aholi bandligi va qurilish sohasida bo'lib, mos ravishda 2023 yilda 74,4 % va 71,6 %ga teng bo'lganligini kuzatish mumkin. Bu esa o'z navbatida, kichik biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni takomillashtirish

maqsadida, sanoat ishlab chiqarishni kengroq o'rganish va chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Buning uchun avvalambor, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bo'yicha uning mazmun-mohiyatini, faoliyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Xorijiy adabiyotlarda «biznes» tushunchasi bo'yicha juda ham ko'plab ta'riflar berib o'tilgan, unda insoniyat, jamiyatning butun rivojlanishi tarixi u yoki bu jihatdan doimo biznes bilan bog'liq bo'lganligi ta'kidlangan.

Biznesmen (tadbirkor) - so'zi birinchi marotaba Angliya iqtisodiyotida paydo bo'lib, "mulk egasi" degan ma'noni anglatishini e'tiborga olgan holda, Adam Smit tomonidan "tadbirkorni foyda olishi uchun qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boradigan kishidir"³ - deb tarif bergan. Ushbu ta'rifga ko'ra, tadbirkorning o'z ishini rejalashtiruvchi, ishlab chiqarishni tashkil etuvchi, mahsulotini sotuvchi hamda olgan daromadiga o'zi xo'jayinlik qiluvchi shaxs – deb ta'kidlash mumkin.

Umuman olganda, biznes – bu puldan pul qilish bo'lib, biror bir faoliyat orqali insonlarga kerakli bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish asosida puldan pulga o'tishdir. Biznes – bu avvalo ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat munosabatlari, hayotni o'zi, so'ngra esa pul ishlash demakdir⁴. Biznes - bu butun dunyoga tarqalgan xorijiy so'z bo'lib, undan barcha mamlakatlarda keng foydalanadilar. O'zbek tilida esa, biznes so'zi tadbirkorlik demakdir. O'zbekcha so'z xorijiy so'zga to'g'ri keladi, lekin unga ko'shimcha ma'no ham beradi. Bu so'zlarni ortida "ish" ya'ni, biror-bir faoliyat bilan shug'ullanish yoki korxonani tashkil qilish yotadi.

Bundan ko'rinadiki, tadbirkor eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llarini va qanday yutuqlarga erishishni iloji boricha oldindan ko'ra olishi kerak. Shuningdek, O'zbekistonda yuzaga kelgan ob'ektiv zaruriyat va ma'lum sub'ektiv sabablar kichik biznes korxonalarini paydo bo'lishi hamda rivojlanishini shart qilib qo'yadi. Bu shart va sabablarni, umumiy va maxsus guruhlarga bo'lish mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, eskirgan, zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to'siq va g'ovlar bekor qilindi. Ko'rilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik sub'ektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Namangan

³ Smith, N. R. The Entrepreneur and His Firm: The Relationship Between Type of Man and Type of Company, Bureau of Business and Economic Research, Michigan State University, East Lansing, Mich., 1967.

⁴ Peter F. Drucker The Theory of the Business. From the Magazine. (September–October 1994).

viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida qarori, "Tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ gi Prezident farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlari yaxshilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" qarorlari shular, jumlasidandir. Albatta, hukumatimiz tomonidan kichik biznes sub'ektlariga bo'lgan bunday e'tibor soha rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, 2019 yil 5 fevraldagi "Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari bilan Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida mamlakatimizning reytingini yanada yaxshilash bo'yicha «Yo'l xaritasi» va 2022 yilga kelib respublikaning 20-o'ringa erishishini nazarda tutuvchi Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasi reytingini yaxshilashning «Biznes yuritishni yaxshilash - 2022» maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan⁶ bo'lsa, Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan e'lon qilingan «Biznes yuritish - 2020» hisobotida O'zbekiston 69-o'rinni egallab, islohotlar miqyosi va samaradorligi bo'yicha dunyoning eng yaxshi 20 ta islohotchi davlati qatoridan joy oldi. Bu esa mamlakatimizda biznes yuritish muhitini yanada yaxshilash, tadbirkorlikka keng erkinlik berish borasida boshlangan islohotlarni davom ettirish hamda qabul qilingan qonun hujjatlarining joylarda to'g'ri tatbiq etilayotganligidan-deb izohlash mumkin.

Kichik biznes sub'ektlari – iqtisodiy o'sishning asosi hisoblanadi, ular ish o'rinlari yaratishda o'z hissalarini qo'shadilar, yirik korxonalar uchun tovarlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar sifatida ishtirok etadilar⁷- deb tavsif beradi. Shu o'rinda bir qator xorijiy olimlarni "Kichik biznes sub'ektlari" va "Tadbirkorlik" tushunchalariga turli yondoshuvlar asosida berilgan ta'riflarni keltirib o'tish lozim (2-jadval).

2-jadval

“Kichik biznes sub'ektlari” va “Tadbirkorlik” tushunchasiga xorijiy olimlar yondoshuvi⁸

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 10.02.2023 y.dagi PF-21Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6379809>

⁶ "DOING BUSINESS": ЎЗБЕКИСТОН ҚАЧОН ЮКСАЛАДИ? <https://strategy.uz/index.php?> News. 523

⁷ Rahman, S. (2001). A comparative study of TQM practice and organisational performance of SMEs with and without ISO 9000 certification. International Journal of Quality & Reliability Management, 18 (1), 35-49.

⁸ Muallif ishlanmasi

T/p	Olimlarning ismi sharifi	Yil	Olimlar tomonidan berilgan ta'rif mazmuni
1.	J.A.Shumpeter	1934 va 1950 y.	Tadbirkorlik, innovatsiya va korxonalar o'rtasidagi munosabatlarning samarali o'rnatilishidir
2.	Budner S., MacDonald A.P.	1962 va 1970 y.	Kichik biznes sub'ektlari bu, aniq va noaniq vaziyatlarni yetarli darajada tuzilishi yoki tasniflanmasligi mumkin bo'lgan vaziyatlarga asoslangan holda daromadga ega bo'lish faoliyatiga asoslangan tashkilot.
3.	Hornaday J. A., Aldridge J.H.	1971 va 1997 y.	Tadbirkorlik – mustaqil ishlab chiqarishni boshqarish va qaror qabul qilish asosida faoliyat yuritish.
4.	Timmons, J.A.	1990 y.	Tadbirkorlikning deyarli barcha ta'riflari innovatsion va ijodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tadbirkorlik - bu mutlaqo ijodiy harakatdir
5.	Tonge, J .	2001 y.	Nisbatan kichik bozor ulushiga ega, shaxsan o'zi mulk egasi yoki egasi tomonidan rasmiy boshqaruv tuzilishining vositachisiz boshqariladigan va mustaqil va katta kompaniyaning tarkibiy qismi bo'lmagan korxonalar "Kichik biznes sub'ektlari" deb yuritiladi.
6.	Bryson J ba Altinay L. ⁹	1993 va 2006 y.	"Kichik biznes sub'ektlari" bu kompaniya hajmi bozor ulushi va sektordagi raqobatning intensivligi bilan belgilanadigan kichik korxonalar.
7.	Fadahunsi A. ¹⁰	2012 y.	Tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishga asosiy hissa qo'shuvchi faoliyatdir

Bu tavsiflarga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari bir qator omillar va mezonlar bilan tavsiflanadi: joylashuvi, hajmi, yoshi, tarkibi, tashkiloti, ishchilar soni, sotish hajmi, aktivlarning qiymati, innovatsiyalar va texnologiyalardan foydalanishga qaratilganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, yuqorida keltirilgan mutaxassis olimlarning va O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bizningcha, kichik biznes sub'ekti egalari tejamkorlik va ko'proq sarmoyalashga moyil,

⁹ Altinay, L. and E. Altinay (2006). "Determinants of ethnic minority entrepreneurial growth in the catering sector." Service Industries Journal 26(2): 203-221.; Bryson, J., D. Keeble, and Wood (1993). "The Creation, Location and Growth of Small Business Service Firms in the United-Kingdom." Service Industries Journal 13(2): 118-131.

¹⁰ Fadahunsi, A. (2012). The Growth of Small Businesses: Towards A Research Agenda. American Journal of Economics and Business Administration, 4 (1), 105-115.

ular har doim muvaffaqiyatga erishishda shaxsiy motivatsiyaga egaligi korxonaning umumiy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznes sub'ektlari birinchi navbatda mahalliy bozordagi talab darajasi to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishadi, ko'pincha ular ma'lum iste'molchilar buyurtmasi bo'yicha tovarlar ishlab chiqaradilar va ish haqi oladigan ishchilarni yashash sharoitlari bilan ta'minlaydilar. Bu borada kichik korxonalar yirik korxonalariga nisbatan ko'p sonli ishchilarni ish bilan ta'minlashga hissa qo'shadi va shu bilan professional kadrlar tayyorlashga va amaliy bilimlarni tarqatishga yordam beradi¹¹- degan fikr o'rinli bo'ladi.

Albatta, kichik biznes faoliyatini yo'lga qo'yish biznesning yo'nalishi, kapitalni qo'llash ob'ekti va aniq natijalarga erishish hisobini e'tiborga olgan holda, kichik biznesni rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlari belgilab olinadi. Agar O'zbekiston Respublikasida faoliyat turiga qarab kichik kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini kuzatsak, hozirda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi boshqa iqtisodiyot tarmoqlariga nisbatan savdo hamda o'rmon va qishloq xo'jaligi tarmog'ida kuzatish mumkin.

Bu esa o'z navbatida respublikada iqtisodiyot tarmoqlarining drayveri bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda sanoat tadbirkorligi muhim mavqega egaligini ifoda etadi. Shu ma'noda va mavzu doirasidan kelib chiqqan holda, tomonidan "Sanoat tadbirkorligi – bu muayyan tovarlarni ishlab chiqarish hamda qonunda taqiqlanmagan ishlarni bajarish va ularni iste'molchilarga sotish bo'yicha xizmatlarni o'zida mujassamlashtirgan faoliyatdir"¹²- deb ta'rif berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://www.uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5088-son "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/5383002>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021 yil 21 apreldagi PQ-5084-son "Namangan viloyatida tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/5381230>

¹¹ Vilenskiy A.V. [i dr.] *Biznes i vlast' v ekonomike sovremennoy Rossii: sb. nauch. rabot.* - M.: institut ekonomiki RAN., 2009. - 188 s.

¹² Nadim Ahmad and Richard G. Seymour *Defining entrepreneurial activity: Definitions Supporting Frameworks for Data Collection.* <https://www.oecd.org/sdd/business-stats/39651330.pdf>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-son "CHorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/5317849>
5. Abdullaev O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. – Namangan, 2002.
6. Abdullaev O. Mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyoti. – T.: "Yangi asr avlodi", 2009.
7. Aydarxanov M. Osnovi ekonomicheskoy teorii. Uchebnik. M.: Foliant. 2017. 432 s.
8. Akimov, V.V. Ekonomika otrasli: Uchebnik / V.V. Akimov, A.G. Gerasimova, T.N. Makarova [i dr.]. — M.: ITS RIOR, 2018. — 286 c.
9. Belokrilova, O.S. Regionalnaya ekonomika i upravlenie: Uchebnoe posobie / O.S. Belokrilova, N.N. Kiseleva, V.V. Xubulova. - M.: Alfa-M, NITS Infra-M, 2013. - 240 c.
10. Vahobov A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi muhim omillar. – O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №5, 2000, 5-9-b.
11. Geets, V.M. Obshestvo, gosudarstvo, ekonomika: fenomenologiya vzaimodeystviya i razvitiya / V.M. Geets. - M.: Ekonomika, 2014. - 631 c.
12. Zarubejnov Ye.S. Ekonomicheskij rost i analiz razvitiya strani cherez makroekonomicheskie pokazateli / Ye.S. Zarubejnov // Vestnik CHelyabinskogo
13. Mahkamov I., Ergashev J. Kasanachilik-aholi bandligi va daromadlarni oshirishning muhim omili. // Tabiatdan foydalanish va muhofaza qilishning geografik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. Namangan, 2010. 215-216 b.
14. Ishmuhamedov A.E., Kalanova L.Z., Raxminova T.Yu., Raximova M.R. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. – T.: O'qituvchi, 1996.
15. Soliev A.S., Mirzaahmedov H.S., Jumaxanov SH.Z. Qo'shma korxonalar geografiyasi. Monografiya. Namangan 2006, 164 b.
16. Soliev A.S., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari. (Qishloq joylar geografiyasi). – T.; Fan va texnologiya, 2009.
17. Soliev A., Qurbonov P. Hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonlari va ularning O'zbekiston Respublikasidagi yangi bosqichi// O'zbekiston geografiya Jamiyati Axboroti. - T., 36-jild, 2010.65 -71b.